

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



BIOLOGIYA KAFEDRASI

ODAM ANATOMIYASI

FANI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta‘lim sohasi 510000 – Biologik va turdosh fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi: 60510100- Biologiya

Guliston – 2024

Fanning nomi	Odam anatomiyasi
Fan/modul kodi	OA1204
Fan/modul turi	Majburiy
O'quv yili	2024/2025
Fan semestri	2
Ta'lim tili/turi	O'zbek/kunduzgi
Fanga ajratilgan soat/kredit	120/4
Auditoriya soat/kredit	48
Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat/kredit	72

I. FANNING MAZMUNI

Fanning maqsadi: 60510100-biologiya talabalarga Odam anatomiyadan bilimlarning nazariy asoslarini, asosiy tushunchalari, odam tanasining tuzilishi, rivojlanishi, tizim filogenezi, a'zolari va tizimlarining funktsiyalarini bir-biriga bog'lab o'rganishdan iborat.

Fanning vazifalari: nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, odam tanasining shakllanish va filogenez qonunlari va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (Ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mavzulari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

No	Mavzu	Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan mavzular	Amaliy (seminar) mashg'ulot bo'yicha mavzulari	Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari
1	1-mavzu. Odam anatomiyasi faniga kirish.	Fanning maqsad va vazifalari. "Odam anatomiyasi" fanining boshqa fanlar tizimida tutgan o'ri. Fanni rivojlanishda	Odam anatomiyasi fanida mulyajlar rasm va atlas bilan ishlash o'rganish.	O'zbekiston olimlarini qo'shgan hissasi. Odam tanasini hujayralari, to'qimalari, organlari, odamni kelib chiqishi.
2	2- mavzu. Osteologiya	Anatomiyada qabul qilingan o'zbekcha va lotincha atamalardan foydalanib, skelet suyaklari bilan tanishish. Osteologiya bo'limlari.	Bosh skleti-peshona yuqori va pastki jag'lar.	Umumiy tavsifi. Suyak tuzilishi, embrional va filogenetik rivojlanishi. Bosh skeleti. Kalla suyaklari – juft, toq suyaklar: ensa, peshona, tepa, chakka, ponasimon va g'alvirsimon suyaklari. Miya qismi suyaklari. Yuz qismi suyaklari.
3	3- mavzu. Tana skeleti tuzilishi.	Umurtqa suyaklari va suyaklar birikishi. Ko'krak qafasi – to'sh suyagi, qovurg'alar tuzilishi va davriy o'zgarishlari. Dumg'aza tuzilishi va shakllanishi. Elka kamarining suyaklari.	1. Oyoq kamarining suyaklari- chanoq tuzilishi. Oyoq erkin suyaklari. 2. Elka kamari suyaklari-kurak tuzilishi. Qo'lning erkin suyaklari.	O'mrov, kurak suyagi – ularning o'zaro birikishi. Qo'lning erkin turgan bo'limidagi suyaklar: elka suyagi, bilak va tirsak suyagi. Qo'l panjasining suyaklari va odam anatomiyasiga xos taraflari. Oyoqning erkin turgan bo'limidagi suyaklar. Oyoq kamari suyaklari va ularning birikishi. Oyoq kamarini

				suyaklari – tos, ya'ni chanoq suyagi – yonbosh, quymich va qov suyagi. Son suyagi. Boldir suyaklari.
4	4- mavzu. Sindesmologiya	Umumiy tavsifi. Suyaklar o'zaro birlashuvi. Sinartrozlar, diartrozlar va simfizlar.	Gavda skeleti suyaklarining birikishi.	Oyoq va qo'l skeleti suyaklarini birikishi. Bosh skeleti suyaklarini birikishi.
5	5- mavzu. Miologiya	Musku to'qimaning filogenezi. Musku to'qimaning kimyoviy tarkibi, mexanik, morfologik tuzilishi.	Gavda muskullari, ko'krak, qorin va bo'yin muskullari. Muskullarining shakli.	Muskullar morfologik va fiziologik hususiyatlarga qarab bo'linishi 1) skelet muskulaturalari, 2) silliq muskullar, 3) yurak muskulaturasi. Fastsiya, pay, aponevrozlar tuzilishi. Sinergist va antogonist muskullar. Muskullar shakli. Gavdaning orqa muskulari: trapetsiyasimon musku, orqaning serbarg muskuli, rombsimon muskuli, kurakni ko'taruvchi muskullar. Ko'krak muskullari: ko'krakni katta va kichik muskullari. Qorin muskullari: tashqi qiyshiq musku, ichki qiyshiq musku, ko'ndalang va to'g'ri musku. Mimmika yoki yuz muskullari.
6	6- mavzu. Ovqat hazm qilish a'zolarining tuzulishi	Jigar tuzilishi, topografiyasi, o't pufagi va me'da osti bezi tuzilishi.	Jigar, o't pufagi, yo'g'on va ingichka ichak, ularning anatomik joylanishi, morfologik tuzilishi.	Umumiy tavsif ichki a'zolar anatomik joylanishi, morfologik tuzilishi.
7	7- mavzu. Nafas olish a'zolar tizimi	Burun bo'shlig'i va burun-halqum tuzilishi. Hiqildoq tuzilishi. Traxeya tuzilishi. Bronxlar tuzilishi. O'pkalar tuzilishi. Plevra tuzilishi.	Nafas olish tizimining umumiy anatomik joylanishi va tuzilishi.	Umumiy tavsif. Nafas olish tizimining umumiy tavsifi. Burun bo'shlig'i va burun-halqum tuzilishi. Hiqildoq tuzilishi. Traxeya tuzilishi. Bronxlar tuzilishi. O'pkalar tuzilishi. Plevra tuzilishi.
8	8- mavzu. Ayirish tizimi	Siydik pufagi tuzilishi. Siydik chiqarish kanali tuzilishi.	Buyraklar tuzilishi.	Umumiy tavsifi. Ayirish a'zolar rivojlanishi.
9	9- mavzu. Endokrin tizim	Umumiy tavsifi. Gipofiz	Qalqonsimon bez,	Umumiy tavsifi. Gipofiz

		tuzilishi va gormonlari. Qalqonsimon bez, epifiz, buyrak usti bezlari, me'da osti bezining inkretor qismi va jinsiy bezlar tuzilishi.	epifiz, buyrak usti bezlari, me'da osti bezining tuzilishi.	tuzilishi va gormonlari.
10	10- mavzu. Qon tomirlar tizimi	Yurak va uning tuzilishi. Asosiy yurak arteriya va vena tomirlari. Qon aylanishining kichik doirasini arteriya va venalari.	Yurak, katta va kichik qon aylanish doirasining tuzilishi.	Umumiy tavsifi. Asosiy yurak arteriya va vena tomirlari. Qon aylanishining kichik doirasini arteriya va venalari.
11	11- mavzu. Asab tizimi	Asab tizimining somatik va vegetativ asab tizmi. Somatik asab tizimi, innervatsiya, vegetativ asab tizimi mustaqil ravishda ishlab turishi.	Markaziy asab qismi, orqa miya, uning tuzilishi.	Umumiy tavsifi. Bosh miya. Uzunchoq, oraliq miya, miyacha, o'rta va oralik miya, orqa miya.
12	12- mavzu. Analizatorlar tuzilishi.	Eshitish a'zolari tashqi, o'rta va ichki quloqlar. Ko'z a'zolaridan shox parda, rangdor parda kameralari ko'z gavhari, kiprikli tana, shishasimon tana, to'r parda, tomirli parda, oq parda va ko'rish nervi.	Eshitish, ko'rish va sezgi a'zolarining tuzilishi	Umumiy tavsifi. Sezgi a'zolari teri analizatorlari terining morfologik va mikroskopik tuzilishi, nerv uchlari.

III. Fanni o'qitilish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. "Odam anatomiyasi" fanini o'zlashtirish jarayonida Odam anatomiyasi fanining rivojlanish tarixi. Tayanch -xarakat sistemasi. Miya quttsining va umurtqa pog'onasi tuzilishi. Muskullar sistemasining tuzilishi. Ichki organlariing tuzilishi. Ovqat xazm qilnsh a'zolarining tuzilishi va fiziologiyasi. Nafas a'zolari tuzilishi va fiziologiyasi. Ayirish a'zolarining tuzilishi va fiziologiyasi. Moddalar va energiya almashinuvi. Qon snstemasi fiziologiyasi. Yurak qon tomirlarining tuzilishi. Ichki sekretiya bezlari. Nerv sistemasi tuzilishi va fiziologiyasi. Bosh miya katta yarim sharlarning tuzilishi va fiziologiyasi. Orqa miyaning tuzilishi. Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi. Birinchi va ikkinchi signal sistemasi. Oliy nerv faoliyati tiplari. Xotira. Uyqu. Sezgi a'zolarining tuzilishi. Xid bilish, ta'm bilish va teri sezgi a'zolaning tuzilishi va fiziologiyasi nazariyalari haqida tasavvurga ega bo'ladi (**bilim**);

2. Talabalar "Odam anatomiyasi" fanini o'zlashtirish jarayonida kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqat madaniyati va hulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladi Fan topshiriqlarini vaqtida bajarish, jamlash va taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'lish xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi (**ko'nikma**);

3. Amaliy mashg'ulot jihozlari vositalaridan samarali foydalangan xolda olgan nazariy bilimlarga tayanib fizikaviy qonuniyatlarni xisoblash sohasida amaliy tajribalarga ega bo'ladi. Berilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plab , ushbu mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlash va uni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (**malaka**).

IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma'ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;

- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish.

V. Kreditlarni olish uchun qo'yiladigan talablar

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Qodirov E.K. Odam anatomiyasi. Lotin.Toshkent. "Universitet". 2007, 276 bet.
2. Qodirov E.K. Odam anatomiyasi. Kiril Chinor ENK; Toshkent, 2003, 220 bet.
3. Сапин М.Р., Билич Г.Л. Анатомия человека, 1989г., Москва. 543 бет.
4. Axmedov N.Q. ATLAS. Odam anatomiyasi. 1-2 tom, Toshkent. «Tibbiyot nashri» 1996, 400 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017.
2. Xudayberdiyev R.E., Axmedov N.Q. va boshqalar. Odam anatomiyasi. Toshkent. Ibn Sino. 1993.
3. Axmedov A., Rasulov X. Odam anatomiyasi. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2013 y.
4. Билич Г.Л. Атлас анатомии человека. 3 т. Ростов над, 2014.
5. Билич ПЛ., Зигалова Е.Ю. Анатомия человека Москва: Издательство «Э», 2016.

Axborot manbaalari

- 1.www.ziyonet
- 2.Gulduportal.uz
- 3.<https://unilibrary.uz>

Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sullar:

O.Yunusov "Biologiya" kafedrasini mudiri, dotsent



Taqrizchilar:

S.Mirzaqulov – O'zMU, b.f.f.d. (PhD), dotsent

Z.Maxmudjonov – GulDU, b.f.f.d. (PhD), dotsent

Izoh: Ushbu fan dasturi Texas A&M University ta'lim dasturlari asosida takomillashtirildi.